

ASR VABOSI - GIYOHVANDLIK VA UNING YOSHLAR HAYOTDAGI AHAMIYATI

Suyunova Dilafruz Bahodir qizi

Annotatsiya: *Giyohvandlik bu ijtimoiy ildizlarga ega bo'lgan kasallikdir va har qanday deviant xatti-harakatlar ijtimoiy va shaxsiy rejani buzilishining natijasidir. Ushbu maqolada asr vabosi - giyohvandlik va uning oqibatlarini yoritib berilgan. Shuningdek, giyohvandlik balosiga qarshi kurashishda yurtimizda ishlab chiqilgan mustahkam huquqiy asoslar atroflicha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *giyohvandlik, yoshlar, deviant xulq-atvor, diagnostika, zaharli modda, sotsiologik tadqiqot, jinoyatchilik.*

KIRISH. Hozirgi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan global muammolardan biri giyohvandlikdir. Obod vatanimizda bu jirkanch illatga qarshi keskin choralar ko'rilishi haqida qonunlarimizda belgilab qo'yilgan.

Giyohvandlikka ruju qo'yanlar quyidagi illatlarga chalinadilar.

Birinchi o'ringidan giyohvand kishi o'z sog'ligidan ayriladi.

Ikkinchi o'ringidan ularning farzandlari nogiron tug'iladi.

Uchinchi o'ringidan oilasidagi bor bisotidan ayrilib, oilaviy tinchligi buziladi, oila porokandalikka yuz tutadi.

To'rtinchi o'ringidan yurt va jamiyat tinchligi va farovonligiga katta zarar yetkazadi.

Beshinchi o'ringidan alal oqibat manqurtga aylanadi va tubsiz jarga qulaydi, ikki dunyoda ham najot topmaydi.

Payg'ambarimiz (solallohu alayhi vasallam)ning hadisi shariflarida "Har bir mast qiluvchi narsa haromdir" (Imom Buxoriy rivoyati) deb marhamat qilingan. Ushbu hadisning mazmunidan anglash mumkinki, har-bir mast ya'ni sarxush qiluvchi narsalar-giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar, nos, sigaret kabilarning barchasi haromdir. Gyohvandlikning yuqorida 5 ta ulkan zararini sanab o'tdik. Bu narsalar aroqxo'rlikka ham bog'liqdir. Giyohvand tubsiz jarlikka qanday qulasa, aroqxo'r ham shunday baloga yo'liqishini hayotimizda ko'plab guvohi bo'lganmiz.

Hozirda yoshlar orasida giyohvandlikka uchrash holatlari va unga qarshi qilanayotga chora-tadbirlarga qaramasdan ko'plab uchramoqda. Giyohvandlik o'zi nima, uni iste'mol qilib yoshlar nima topadi, nega asosan yoshlar bu kabi deviant xulq-atvor ko'rinishiga moyil bo'lishadi? Giyohvandlik, narkomaniya, bangilik — narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qilish, aniqrog'i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o'zgarishiga sabab bo'ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Natijada bu moddani iste'mol qilgan sari yoshlar bora bora mukkasidan ketadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Giyohvandlik, narkomaniya, bangilik — narkotik moddalarga oʻrganib qolish, ruju qilish, aniqrogʻi tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga isteʼmol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur oʻzgarishiga sabab boʻladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlik da oʻzini toʻxtatib boʻlmaydigan darajada giyohvand moddalarni isteʼmol qilish mayli paydo boʻladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bogʻliqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimogʻchogʻlik (qarang Eyforiya), xotirjamlik hissini uygʻotib, kayf qildiradi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi. Giyohvandlik zaylda avj olishi mumkin. Birinchi holda vrach buyurgan va bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega boʻlgan dorilarni uzoq vaqt va notoʻgʻri qabul qilish; ogʻriq, uyqusizlik va boshqa dardlardan qutilish maqsadida dori miqdori (dozasi)ni oshirib borish; darddan tuzalib doriga unchalik ehtiyoj boʻlmasa ham, uni qabul qilaverish natijasida dorining narkotik taʼsiri va miqdori orta borib, pirovardida giyohvand moddaga moyillik kuchayib, u humor qiladigan boʻlib qoladi. Ikkinchi hol ongli ravishda kayf qilish maqsadida giyohvand moddalarga oʻrganishdir.

Giyohvandlikka, odatda, irodasi kuchsiz, oʻzini tiya olmaydigan, oʻtkir sezgilarni oʻzida sinab koʻrishga qiziquvchan, ruhan zaif va oʻta xudbin kishilar beriluvchan boʻladi. Yoshlar tarbiyasidagi nuqson va kamchiliklar, giyohvand moddalarni isteʼmol qilib yuruvchi katta yoshdagilarga taklid va havas, oiladagi noxush sharoit (ota-onaning ichkilikboz yoki giyohvand boʻlishi) hamda giyohvand moddalarning oson topilishi yoki qoʻl ostida boʻlishi ham Giyohvandlikka sabab boʻlishi mumkin. Giyohvandlikka muhtalo boʻlganlarda xastalik borgan sari kuchaya borib, odatda, kutilmagan yomon oqibatlarga olib keladi. Giyohvandlik eyforiyasida, yaʼni kayfi chogʻlikda 2 bosqich kuzatiladi: qisqa muddatli —1-5 daqiqa davom etadigan oʻtkir hissiyotli bosqich (haqiqiy eyforiya) va uzoq (1—3 soat) choʻziladigan boʻshashish, tinchlanish davri. Bu bosqichlarning qisqa yoki uzoq boʻlishi qanday giyohvand modda qabul qilinganiga va miqdoriga bogʻliq. Giyohvandlikning hamma turi ham oʻz rivojida giyohvand moddalarga oʻrganib qolish yoʻli bilan giyohvandlik sindromining shakllanishiga olib keladi. ¹

Bu sindromning rivojlanishida ham 3 bosqich farqlanadi:

- 1) giyohvand moddaga nisbatan organizm reaktivligining oʻzgarishi va ruhiy bogʻlanishning paydo boʻlishi;
- 2) xumor (abstinent) sindromi koʻrinishida jismoniy bogʻlanishning yuzaga kelishi;
- 3) organizm barcha sistemalarining zaiflashishi (tolerantlikning pasayishi, yaʼni giyohvand moddalarning avvalgi miqdorini koʻtara olmaslik, xumorning

¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik>

surunkali davom etishi va ayrim hollarda polinarkomaniya ning vujudga kelishi). Giyohvandlikka muhtalo bo'lgan kishi giyohvand moddalarni qayta-qayta va ko'proq miqdorda iste'mol kila boshlaydi. Keyinchalik esa giyohvand moddalarsiz turolmaydigan bo'lib qoladi. Bunday ahvoldan qutilish va o'zini bir oz yengil his qilish uchun yana giyohvand moddaga ruju qiladi va oxir-oqibat giyohvand moddalarga hirs qo'yish kelib chiqadi. Organizmning dastlabki himoya reflekslari (ko'ngil aynishi, qusish) yo'qoladi. Bu davrda organizmda giyohvand moddalarga nisbatan moyillik shu darajada kuchayib ketadiki, go'yo bu moddalar avvalgi ta'sir kuchini yo'qotgandek bo'lib qoladi, endi avvalgidek eyforiya (kayf) holatini his qilish, xumorni tarqatish uchun o'sha moddadan ko'proq miqdorda qabul qilgisi keladi. Oldiniga giyohvand modda birmuncha yoqimsiz ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik go'yoki uning holatini "normallashtirganga" o'xshaydi, bemor o'zini birmuncha yaxshi his qiladi, ish qobiliyati, ruhi go'yo tetiklashadi, pirovardida u haqiqiy giyohvand bo'lib qoladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Giyohvandlarda avval ruhiy o'zgarishlar (tajanglik, kayfiyat buzuqligi, xotira pasayishi) paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik jismoniy o'zgarishlar — jismoniy bog'lanib qolish sindromi (terlash, yurak urishi, og'iz qurishi, ozib ketish, qo'l-oyoqning titrashi va boshqalar) ro'y beradi. Agar giyohvand o'z vaqtida narkotik moddani qabul qilmasa, organizmda kuchli ruhiy va jismoniy o'zgarishlar, ya'ni giyohvandlikka xos og'ir holat — xumorlik (qarang Abstinensiya) sindromi paydo bo'ladi. Giyohvandlik opiomaniya (afyun qabul qilish), morfinizm, heroinizm ko'rinishida bo'ladi. Giyohvandlikning nashavandlik, kokainizm, nikotinizm (tamakiga ruju qilish), teizm (achchiq choy ichish) va boshqa turlari ham uchraydi. Ikki yoki undan ortiq xil giyohvand moddani surunkali qabul qilish — pol i narkomaniya deyiladi. Giyohvandlikning hamma turida ham organizm zaharlanadi va u juda og'ir kechadi.

Yer yuzining turli mintaqalarida Giyohvandlik ning ayrim turlari kuzatiladi. Giyohvandlik ning heroinizm turi keyingi vaqtda juda keng va fojiali tarzda tarkalib bormoqda. Giyohvandlik avj olishining oldini olish uchun ayrim mamlakatlarda tegishli tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan O'zRda Giyohvandlikka qarshi kurash qo'mitasi tashkil qilinib, davlat dasturi ishlab chiqilgan. Respublikada narkologiya markazi tashkil qilingan va bu markazda narkologiya bo'yicha olim va mutaxassislar tomonidan malakali kadrlar tayyorlanib, ular mamlakat mintaqalarida Giyohvandlikka karshi keskin kurash olib boradi. Giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlar asosan shifoxona (statsionar) sharoitida 2—4 oygacha davolanib, 4—5 yilgacha ambulatoriya kuzatuv va hisobida bo'ladilar. O'zbekistonda giyohvand vositalarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullangan kishilar jinoiy javobgarlikka tortiladi.²

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, so'nggi 20 yilda ko'p mamlakatlarda giyohvandlik vositalari bilan birga psixotrop va psixofaol moddalarni iste'mol

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik>

qiluvchilarning soni oshib bormoqda. Ma'lum qilinishicha, aksariyat davlatlarda giyohvandlik ijtimoiy halokat deya e'tirof etilgan. Ushbu illatning yoshlar orasida ommalashishi ayniqsa xavflidir – birdaniga jamiyatning ham hozirgi kuni, ham kelajagi yo'qolib, parchalanadi.

Yoshlar o'rtasida bu illatning ko'payib ketishini quyidagi hollar bilan tushuntirish mumkin:

- o'smirlarning har xil narsalarga qiziquvchanligi, tez ta'sirga beriluvchanligi;
- ularning ushbu kasallik tufayli kelib chiqayotgan asoratlarni bilmasligi;
- aholi orasida giyohvand vosita yoki giyohvandlik kasalligi to'g'risidagi axborotlarning kamligi va boshqalar.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda respublika hududida giyohvandlik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi vositalar noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar orasida yoshlar 74 foizga (shu jumladan, talabalar 21 foizga, maktab o'quvchilari 6 barobarga) oshgan. Narkologik hisobga olingan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan giyohvandlik vositalari iste'molchilari 60 foizga ko'paygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uwed.uz/en/news/fulltext/1669>;
2. <https://daryo.uz/2021/10/14/ozbekistonda-qancha-odam-giyohvandlikka-qaram-kishilar-hisobida-turishi-malum-boldi/>;
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik>
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>;
5. <https://tviibb.uz/oz/news/chinoz-tumanida-giyohvand-vositalar-yetishtiruvchi-maxsus-laboratoriya-faoliyatiga-chek-qoyildi>;
6. <https://islom.ziyouz.com/maqola/xorlikka-eltuvchi-qora-ai-al>;
7. S.Eshqobilov, B.Raimjonov/Huquqbuzarliklarning oldini olishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2021-yil 12-noyabr). -T.: Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali, 2022. -109b.
8. Арипова, А. Х. (2021). Нуц мохиятини ташкил этувчи мухим восита. Scientific progress, 1(6).